



**«TASDIQLAYMAN»
“Biznesni rivojlantirish banki” ATB
Boshqaruv raisi o'rinbosari v.b.:
O.Voxidov**

**«26» yanvar 2026 y.
№ 81**

TEXNIK TALABLAR VA TOPSHIRIQ

**“FRONTAL KIRISH IMKONIYATIGA EGA
KASSETALAR VA NAQD PULLARNI YUKLASH
UCHUN BANKOMATLARNI (RECYCLING) YETKAZIB BERISH”**

TEXNIK QISM

FRONTAL (OLD TOMONDAN) KIRISH ORQALI KASSETALAR VA NAQD PULLARNI YUKLASHGA MO‘LJALLANGAN (RECYCLING) BANKOMATLARNI YETKAZIB BERISH BO‘YICHA TEXNIK TALABLAR VA TOPSHIRIQ

1. Umumiy talablar

Frontal (old tomondan) kirish orqali kassetalar va naqd pulni yuklash imkoniyatiga ega **recycling bankomatlar** tovarining tavsifi:

Recycling bankomat (banknotalarni qayta aylantirish funksiyasiga ega bankomat) — bu naqd pullarni qabul qiladigan, ularni tekshiradigan va keyinchalik milliy hamda xorijiy valyutada plastik kartalar (Uzcard, Humo, kobeydjing kartalar, UnionPay, MasterCard, VISA va boshqalar) orqali naqd pul berish uchun qayta ishlatadigan, naqd pul muomalasining yopiq sikli (retsirkulyatsiya) funksiyasiga ega bankomatdir.

Quyidagi operatsiyalarni amalga oshirish imkoniyati bo‘lishi kerak:

- ⌚ to‘lovlar;
- ⌚ balansni tekshirish;
- ⌚ operatsiyalar tarixini ko‘rish;
- ⌚ SMS-xabardor qilish xizmatini ulash va o‘chirish;
- ⌚ PIN-kodni o‘zgartirish;
- ⌚ bankda kreditni so‘ndirish;
- ⌚ xizmatlar uchun to‘lovlar (davlat to‘lovlari, kommunal to‘lovlar, mobil aloqa xizmatlari va boshqalar).

Xarid jarayonida ishtirok etuvchi ishtirokchi xarid qilinayotgan Tovarning **to‘liq hajmi** bo‘yicha taklif taqdim etishi shart.

Mahsulot nomi, miqdori va zarur texnik tavsiflari **1-jadval va 2-jadvalda** keltirilgan.

Tovar spetsifikatsiyasi

Mahsulot nomi	Miqdori
Kassetalar va naqd pullarni frontal (old tomondan) yuklash imkoniyatiga ega Recycling bankomat	21 (yigirma bir)

Jadval № 2

Tovarning texnik xususiyatlari

Funksional talablar	⌚ Naqd pul qabul qilish va berish: ○ milliy valyuta; ○ xorijiy valyuta; ○ valyuta ayirboshlash; ⌚ Naqd pul aylanmasining yopiq sikli (Recycler); ⌚ SMS-xabarnoma; ⌚ Xizmatlar uchun to'lovlarni amalga oshirish; ⌚ Kreditni so'ndirish; ⌚ Xizmatlar uchun to'lov (davlat to'lovlari, kommunal to'lovlar, mobil aloqa uchun to'lov va h.k.)
Mijoz interfeysi	Qurilma old (yuz) tomonida joylashgan ikkita alohida displey bilan jihozlangan bo'lishi kerak: ⌚ Birinchi displey foydalanuvchilar uchun — diagonaliga kamida 15 dyuym bo'lgan, chetdan kuzatishdan himoya qiluvchi polarizatsion filtr o'rnatish imkoniyati (opsional) mavjud rangli suyuq kristalli sensorli ekran. ⌚ Ikkinchi displey — diagonaliga kamida 19 dyuym bo'lgan, reklama videoroliklari va mijozlar uchun ma'lumotlarni namoyish etishga mo'ljallangan alohida rangli suyuq kristalli ekran. ⌚ Klaviatura — himoyalangan EPP4 va undan yuqori (PCI DSS 6.0 va undan yuqori standartga mos keluvchi), DES va Triple DES shifrlash algoritmlarini qo'llab-quvvatlaydigan, lotin yozuvidagi o'zbek tili harflari joylashuviga ega; ⌚ kartalarni o'qish qurilmasi — EMV Track 3 RW standartini qo'llab-quvvatlaydigan motorlashtirilgan bank kartalarini o'qish qurilmasi; ⌚ tashuvchilarni kiritish/chiqarish bo'yicha ichki o'rnatilgan yorug'lik indikatorlari (MEEI); ⌚ skimmingdan himoya qilish yechimi (SPS); ⌚ ichki o'rnatilgan kontaktsiz kartalarni o'qish qurilmasi; ⌚ audio quyi tizim (opsional) va/yoki ovoz balandligini rostlagichga ega ovoz ulagichi; ⌚ shtrix-kodlarni o'qish qurilmasi: ikki o'lchamli va bir o'lchamli shtrix-kodlarni o'qishni qo'llab-quvvatlash (opsional);
Banknotalarni qabul qilish va berish qurilmasi	⌚ Banknotlarni retsirkulyatsiya qilish moduli — har biri kamida 2 500 ta kupyura sig'imiga ega bo'lgan kamida 5 ta retsirkulyatsiya kassetasi, kamida 3 000 ta kupyura sig'imiga ega bo'lgan kamida 1 ta depozit

	kassetasi, shuningdek, kamida 700 ta kupyura sig‘imiga ega bo‘lgan kamida 1 ta yaroqsiz (brak) kupyuralar uchun kasseta. ⌚ Qo‘shimcha kassetalar to‘plami (5 ta retsirkulyatsiya kassetasi, 1 ta depozit kassetasi, 1 ta yaroqsiz kupyuralar uchun kasseta); ⌚ Bitta nominal (yoki bir valyuta) uchun sozlanadigan kassetadan foydalanish imkoniyati; ⌚ Banknotlarni qaytarib olish (retract) va rad etish (reject) imkoniyati; ⌚ Kupyuralarni vaqtincha saqlash moduli ("eskrou-modul") — sig‘imi kamida 300 ta kupyura; ⌚ Kupyuralarni qabul qilish va berish sloti — sig‘imi kamida 100 ta kupyura; ⌚ Seyfdagi modul (kupyuralar transportirovkasi) va kassetalar nosozliklari indikatsiyasining mavjudligi.
Kupyura qabul qilish qurilmasi	⌚ Barcha foydalaniladigan valyutalarni deteksiya qilish, soxta va shikastlangan kupyuralarni tanib olish hamda rad etish (brakka chiqarish) funksionali; ⌚ O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki talablariga muvofiq kupyuralarni majburiy validatsiya qilish. Metallni aniqlash, banknotlarni (shu jumladan, UZS) deteksiya qilish va tanib olish hamda himoya belgilari va kupyura elementlarini tanib olish (O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining qarori, 29.06.2018-y., ro‘yxat raqami 3028); ⌚ UZS/USD valyutalari uchun valyuta kutubxonalarining majburiy mavjudligi va kutubxonani kengaytirish imkoniyati.
Printerlar	⌚ termografik printer; ⌚ datchiklar: qog‘oz borligi, qog‘oz tiqilib qolishi, chiqishdagi chek datchigi.
Xavfsizlik	⌚ USB himoyasi va qismlarni tekshirish; ⌚ Uzluksiz quvvat manbai (UQM/UPS): UQM maksimal yuklamada barqaror kuchlanishni va bankomatning kamida 10 daqiqa avtonom ishlashini ta'minlashi kerak. Batareya sig‘imi – kamida 1000 Vt·soat. UPS turi – chiqishda toza sinusoidal va kuchlanishni barqarorlashtirish funksiyasiga ega online yoki line-interactive. ⌚ seyf — buzib ochishga chidamlilik bo‘yicha 1-sinf, CEN I dan past bo‘lmagan, limb (mexanik kodli) qulfli; ⌚ Qulf — limbli kod mexanizmiga ega; ⌚ mijozlar uchun orqani ko‘rish ko‘zgusi; ⌚ kupyuralar transportini bloklash qurilmasining mavjudligi; ⌚ antiskimming (faol / passiv);

	⌚ rangli portret videokamerasi;
Xizmat ko'rsatish	Bankomatga xizmat ko'rsatish faqat old tomondan ko'zda tutilgan.
Operatsion platforma	⌚ Protssessor — Intel Core i7 dan past bo'lmagan, kamida 16 oqimli (potok), har bir yadroning bazaviy chastotasi kamida 2,0 GGs; ⌚ Tezkor xotira (OZU) — kamida 16 GB, turi DDR4 yoki undan yuqori; ⌚ Ma'lumotlar va operatsion tizimni saqlash uchun jamlagich — hajmi kamida 1 TB bo'lgan yagona SSD-jamlagich; ⌚ Tarmoq va interfeys portlari — LAN, COM, USB mavjudligi; ⌚ Videointerfeyslar (o'rnatilgan, Onboard) — DVI va VGA; ⌚ Tarmoq interfeysi — Ethernet 10/100/1000 Mbit/s; ⌚ USB-portlar — kamida 10 dona, shulardan kamida 6 tasi — ona platada; ⌚ DisplayPort portlari — kamida 2 dona; ⌚ Maksimal iste'mol quvvatidan kamida 10% zaxira bilan bankomatning to'laqonli ishlashini ta'minlovchi elektr ta'minoti.
Dasturiy ta'minot	⌚ Windows 10 oilasiga mansub dasturiy ta'minotning oldindan o'rnatilgan dolzarb versiyasi; ⌚ To'plamda bankomat ishlashi uchun qo'shimcha dasturiy paket; ⌚ O'zbekiston Respublikasining protsessing markazlari — Uzcard va HUMO bilan moslik. Retsirkulyatsiya bankomatlarining Uzcard va HUMO to'lov tizimlari bilan mosligi mavjud bo'lmagan taqdirda, yetkazib beruvchi uskunani yetkazib berish boshlangunga qadar tegishli protsessing markazlarida zarur sinov va sertifikatlashtirish jarayonlaridan o'tishi shart. ⌚ Xalqaro VISA, Mastercard, ChinaUnionPay va/yoki boshqa kartalar bilan ishlashda bankning protsessing markazi bilan moslik; ⌚ Buyurtmachi talablariga muvofiq cheklar mazmuni va shaklini sozlash; ⌚ Dasturiy ta'minotga bo'lgan barcha litsenziyalar muddatsiz bo'lishi kerak; ⌚ Dasturiy ta'minot bankning ABT (Avtomatlashtirilgan bank tizimi) va call-markazi bilan ishlashni, shuningdek, mijoz sessiyalarini shifrlashni ta'minlashi kerak.
Qo'shimcha talablar	⌚ Biometrik autentifikatsiyaga tayyorlik; ⌚ Kontaktsiz to'lovlarga tayyorlik; ⌚ Videokuzatuv tizimi (frontal zonadagi kamera) — tranzaksiya raqami yoki sanasi bo'yicha foto/video va elektron jurnal ma'lumotlarini tezkor

	qidirish imkoniyati bilan; ⌚ Valyuta ayirboshlash (cash-to-cash) funksionalini "kalit taslim" yetkazib berish formatida amalga oshirish; ⌚ Ishchi harorat diapazoni (standart rejim): -10 °C dan +40 °C gacha.
--	---

**(Xarid qilish jarayoni ishtirokchilari doirasini kengaytirish maqsadida, Buyurtmachi tomonidan Texnik topshiriqda ko'rsatilgan uskunaga funksional jihatdan o'xshash (analog) yoki xususiyatlari bo'yicha undan ustun bo'lgan uskunalar ko'rib chiqiladi).*

Xarid komissiyasi takliflarning xarid shartlari talablariga, jumladan, ularga kiritilgan har qanday qo'shimchalarga mosligini tekshiradi.

Texnik taklifda (1-jadval) xarid qilish jarayoni ishtirokchisi quyidagilarni ko'rsatishi shart:

- a) yetkazib beriladigan tovarning ishlab chiqarilgan yili;
- b) yetkazib beriladigan tovarning kelib chiqish mamlakati;
- c) kafolat muddati va kafolatli xizmat ko'rsatish shartlari to'g'risidagi ma'lumot;
- d) ishlab chiqaruvchi zavod;
- e) Tovarni yetkazib berish muddati.

Xarid qilish jarayoni ishtirokchisi taklifning texnik qismida quyidagilarni taqdim etishi shart:

- a) texnik taklif (1-jadvalga muvofiq);
- b) ishtirokchining taklif etilayotgan Tovarni O'zbekiston Respublikasi hududida sotish vakolatini tasdiqlovchi, mahsulot ishlab chiqaruvchilaridan olingan avtorizatsiya hujjatlarining asl nusxalari yoki tasdiqlangan nusxalari;
- c) o'xshash (analog) Tovarni yetkazib berish tajribasi tasdiqlangan ma'lumot;
- d) ko'rsatilgan texnikaga kafolatli xizmat ko'rsatishni ta'minlash uchun uskuna ishlab chiqaruvchisining O'zbekistondagi servis markazlari ro'yxati va manzillari;

1. Xarid qilish maqsadi

Bank filiallarida, bank mijozlari hududida va aholi uchun qulay joylarda, shu jumladan 24/7 shoxobchalarida, ko'chalar va binolarda joylashtirish uchun.

2. Mazkur xarid amalga oshirilishiga asos:

Bank kartalari tizimini qo'llab-quvvatlash Departamenti bildirishnomasi № IF-268 22-01-2026.

3. Tovarni sug'urtalash

Yetkazib berish shartlariga muvofiq.

4. Tovarlarning o'ldamlari, qadoqlanishi va yuklanishiga qo'yiladigan talablar

- ⌚ Bankomatlar yetkazib beriladigan har bir yuk o'zni (quti) ikki qarama-qarshi tomondan markirovkaga ega bo'lishi kerak.
- ⌚ Markirovka o'chmaydigan bo'yoq bilan ingliz va rus tillarida aniq tushirilishi kerak:
 - Shartnoma (Kontrakt) №;
 - Yuk o'zni №;
 - Brutto vazni, kg;
 - Netto vazni, kg;
 - Soni;
 - Buyurtmachi (nomi va manzili);
 - Yuboruvchi (nomi va manzili).
- ⌚ Maxsus muomala talab etiladigan qutilarga quyidagi qo'shimcha markirovka tushiriladi:
 - Tapa (Verx);
 - Ehtiyot bo'ling;
 - Tashlanmasin (Otilmasin);
 - Quruq joyda saqlansin.
- ⌚ Barcha bankomatlar tashish, ortish va saqlash vaqtida shikastlanishdan himoyalangan eksport turidagi qadoqqa o'ralgan bo'lishi kerak.
- ⌚ Yetkazib beruvchi sifatsiz yoki nomuvofiq qadoqlash va/yoki tashish oqibatida bankomatlarining har qanday buzilishi (shikastlanishi) uchun Buyurtmachi oldida javobgar bo'ladi.
- ⌚ Yetkazib beruvchi to'liq bo'lmagan yoki noto'g'ri markirovka oqibatida bankomatning shikastlanishi va/yoki noto'g'ri manzilga yetkazilishi bilan bog'liq zararlar uchun javobgar bo'ladi.
- ⌚ Tovar yangi, ilgari foydalanilmagan, ekspluatatsiya qilinmagan bo'lishi kerakligi haqida ko'rsatma (agar davlat xaridi tavsifida boshqacha nazarda tutilmagan bo'lsa).
- ⌚ Tovar mashhur jahon ishlab chiqaruvchilaridan (Brand Name) bo'lishi kerak.
- ⌚ Sotib olinadigan bankomatlar yangi, ilgari foydalanilmagan va ishlab chiqarishdan olib tashlanmagan bo'lishi kerak. Ko'rgazma namunalari, hamda qayta tiklangan tugunlardan (qismlardan) yig'ilgan uskunalarini yetkazib berishga yo'l qo'yilmaydi.
- ⌚ Uskuna but holda yetkazib berilishi hamda konstruktiv va funksional moslikni ta'minlashi kerak.

5. Butlash (komplektatsiya) bo'yicha talablar.

Yetkazib beruvchi to'liq butlangan, ishlashga yaroqli bankomatlarini taqdim etishi, zarurat tug'ilganda, ajratilgan byudjet doirasida Buyurtmachi tomonidan qandaydir sabablarga ko'ra hisobga olinmagan, ammo so'ralayotgan konfiguratsiyadan to'liq foydalanishni ta'minlash uchun majburiy bo'lgan qo'shimcha modullar, mahsulotlar va xizmatlarni taklif qilishi shart. Butlash (komplektatsiya) ushbu Texnik topshiriqda ko'rsatilgan texnik xususiyatlarga muvofiq ta'minlanishi kerak.

6. Tovarga xizmat ko'rsatish va ekspluatatsiya qilish bo'yicha talablar.

Ijrochida uskunaga xizmat ko'rsatish bo'yicha O'zbekiston Respublikasining viloyat markazlarida malakali va sertifikatlangan mutaxassislarga ega servis markazining bo'lishi majburiydir. Bankomatlar ishga tushirish-sozlash ishlari o'tkazilganidan va dasturiy ta'minot yuklanganidan

so'ng ekspluatatsiya uchun tayyor bo'lishi kerak. Barcha bankomatlar O'zbekiston Respublikasi banklararo to'lov tizimlari doirasida foydalanish uchun mo'ljallangan (mos keladigan) bo'lishi kerak.

7. Tovarni ekspluatatsiya qilish xarajatlariga oid talablar.

- ⌚ Nuqsonli bankomatni almashtirish va uni qo'shimcha yetkazib berish bilan bog'liq barcha transport va boshqa xarajatlar Yetkazib beruvchi hisobidan amalga oshiriladi.
- ⌚ Buyurtmachining reklamatsiyasi (e'tirozi) bo'yicha bankomat qaytarilganda va Yetkazib beruvchi tomonidan Mahsulot qo'shimcha yetkazib berilganda, barcha xarajatlarni, shu jumladan Mahsulotni markirovkalash xarajatlarini Yetkazib beruvchi o'z zimmasiga oladi.
- ⌚ Bankomatlar ekspluatatsiya jarayonida qog'oz to'ldirish, elektr energiyasi sarfi va zarur ta'mirlashdan tashqari qo'shimcha xarajatlarni talab qilmasligi kerak.
- ⌚ Yetkazib beruvchi talab etilishiga qarab, zarur hajmdagi ehtiyot qismlarni (ZIP) taqdim etishi shart.
- ⌚ Ehtiyot qismlar (ZIP) va sarflash materiallari butun kafolat muddati uchun mo'ljallangan bo'lishi kerak.

8. Tovarining texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi me'yoriy hujjatlarga muvofiqligi bo'yicha talab.

- ⌚ Xarid qilish jarayoni ishtirokchisi mahsulot ishlab chiqaruvchilaridan olingan, ishtirokchining taklif etilayotgan tovarni O'zbekiston Respublikasi hududida sotish vakolatini tasdiqlovchi avtorizatsiya hujjatlarining asl nusxalariga yoki tasdiqlangan nusxalariga ega bo'lishi kerak.
- ⌚ Uskuna yong'in, sanitariya va elektr xavfsizligi, shuningdek, elektromagnit moslashuv bo'yicha amaldagi standartlar va me'yorlarga hamda O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlarida majburiy sertifikatlashtirish nazarda tutilgan mahsulotlar nomenklaturasiga muvofiq bo'lishi va bu hujjat bilan tasdiqlanishi kerak.
- ⌚ Ular mavjud bo'lmaganda esa – tovarlarning kelib chiqish mamlakati uchun maqbul deb tan olingan standartga muvofiq bo'lishi kerak. Bunday standartlar tegishli muassasalar tomonidan chiqarilgan eng so'nggilari bo'lishi lozim.
- ⌚ Bankomatlar EMV standartlariga mos kelishi va tegishli sertifikatlariga ega bo'lishi kerak.

9. Yetkazib berish miqdori, davriyligi, muddati va joyiga qo'yiladigan talablar.

- ⌚ Miqdori – 21 (yigirma bir) dona.
- ⌚ Yetkazib berish muddati – yetkazib berish bo'yicha kontrakt imzolangan va oldindan to'lov amalga oshirilgan sanadan boshlab 20 (yigirma) kalendar kundan oshmasligi kerak.

Yetkazib berish joyi:

Norezidentlar uchun – "Inkoterms-2020" qoidalariga muvofiq CIP Toshkent, O'zbekiston Respublikasi;

Rezidentlar uchun – Buyurtmachining ombori, manzil: O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan BXO va BXM lariga :

1. Toshkent shahri, A. Navoiy ko'chasi, 18a-uy. 2 dona.
2. Qo'qon BXM 1 dona: Fargona viloyati Qoqon shahar A Temur kochasi 30A uy
3. Yangiqo'rg'on 2-toifa 1 dona: Fargona viloyati Qoqon shahar A Temur kochasi 30A uy
4. Namangan BXO 1 dona: Namangan viloyati Namangan shahar A. Navoiy ko'chasi 70 A uy
5. Xorazm BXO 2 dona 1. Xorazm viloyati 220100 Urganch shahar Al Xorazmiy 19 uy.
2. Xorazm viloyati 220100 Urganch shahar Markaziy dexqon bozor yopiq hudud 1yolak
6. Ipak yo'li 2 toifa 1 dona: Amudaryo tumani, A. Navoiy MFI, Shodlik ko'chasi, 23-uy.
7. Guliston BXO 1 dona: Sirdaryo viloyati Guliston shahar yangi dexqon bozori hududi
8. Jizzax BXO 1 dona: Jizzax viloyati, Jizzax shahri, A. Navoiy MFY, A. Navoiy ko'chasi, 81-uy.
9. Termiz BXO 1 dona: Surxondaryo viloyati Termiz shahar At-termiziy ko'chasi 11-uy
10. Qumqurg'on BXM 1 dona: Surxondaryo viloyati Qumqorg'on tumani Yangishahar MFY, O'zbekiston shoh ko'chasi 5 uy.
11. Sarosiy BXM 1 dona: Surxondaryo viloyati Sarosiy t. Mirzo Ulug'bek mahallasi A. Qahhor ko'chasi 45-uy
12. Kogon BXM 1 dona: Biznesni rivojlantirish banki ATB Kogon BXM 200100 Buxoro viloyati, Kogon shahri Dustlik kuchasi, 4 -uy.
13. Turon 2-toifa BXM 1 dona Qoraqalpog'iston Respublikasi To'rtko'l tumani, Nurli yo'l MFY, Beruniy ko'chasi, To'rtko'l savdo kompleksi, 325/1-uy
14. Toshkent BXO 1 dona: Toshkent shahri, A. Navoiy ko'chasi, 18a-uy. 2 dona.
15. Yakkasaroy BXM 1 dona: Toshkent shahar, Yakkasaroy tumani, Shota Rustaveli ko'chasi, 53B.
16. Farg'ona BXO 2 dona: Farg'ona BXO — Farg'ona shahar, Al-Farg'oniy ko'chasi, 47-uy.
17. Beshariq BXM 1 dona: Farg'ona viloyati Beshariq tumani Oltin vodiya ko'chasi 210 uy
18. Nurafshon BXO 1 dona: Toshkent viloyati, Nurafshon shahri, Toshkent yo'li ko'chasi, 150-uy, Muqimiy MFY, 10818.

10. Shef-montaj (o'rnatish nazorati) bo'yicha talablar.

- ⌚ Uskuna yuk qabul qiluvchilarda montaj qilish (o'rnatish) uchun tayyor holatda yetkazib berilishi kerak.
- ⌚ Yetkazib beruvchi taklif etilayotgan barcha uskunaning ham to'plam tarkibida, ham mustaqil birlik sifatida ishlash qobiliyatini ta'minlashi lozim. Bunda ushbu talabni ta'minlash uchun zarur bo'lgan barcha komponentlar (kabellar, mahkamlagichlar) yetkazib berish to'plamiga kiritilgan bo'lishi shart.
- ⌚ Yetkazib beruvchi bankomatlarining "Uzcard" va "HUMO" to'lov tizimlari bilan mosligini kafolatlaydi.
- ⌚ Agar retsirkulyatsiya bankomatlari "Uzcard" va "HUMO" to'lov tizimlari bilan mos kelmasa, yetkazib beruvchi uskuna yetkazib berilishi boshlangunga qadar tegishli protsessing markazlarida zarur sinov va sertifikatlash tartib-taomillaridan o'tishi shart.

11. Xodimlarni o'qitish bo'yicha talablar.

Yetkazib beruvchi bank xodimlarini yetkazib berilayotgan bankomat modelini ekspluatatsiya qilish qoidalariga o'rgatishi kerak. Xodimlarni o'qitish bilan bog'liq barcha xarajatlar to'liq Yetkazib beruvchi zimmasiga yuklanadi.

12. Tovar bilan birga taqdim etiladigan hujjatlar va sarflash materiallarining zarur miqdori.

Yuklab jo‘natilgan bankomatlar bilan birga Yetkazib beruvchi Buyurtmachiga quyidagi hujjatlarni yuborish majburiyatini oladi:

- ⌚ Yuklab jo‘natilgan tovarning umumiy qiymati summasiga Buyurtmachi nomiga yozilgan hisob-faktura (invoys);
- ⌚ Buyurtmachi nomiga yozilgan transport yuk xati;
- ⌚ Qadoqlash varaqlari;
- ⌚ Eksportchi mamlakatning vakolatli organi tomonidan chiqarilgan, Buyurtmachi nomiga berilgan kelib chiqish sertifikat;
- ⌚ Yuklab jo‘natilgan tovarning (bankomatlarning) umumiy faktura qiymati ko‘rsatilgan eksport yuk bojxona deklaratsiyasi;
- ⌚ Bankomatlarni ishlab chiqaruvchi tomonidan berilgan sifat va muvofiqlik sertifikat;
- ⌚ Yetkazib berish shartlariga muvofiq sug‘urta polisi yoki sug‘urta sertifikat;
- ⌚ Yetkazib berilayotgan bankomatlarni ekspluatatsiya qilish bo‘yicha hujjatlar.

13. Yetkazib berilgan tovarni topshirish va qabul qilishga oid talablar.

- ⌚ Tovar kelib tushgan paytdan e‘tiboran Buyurtmachi mutaxassislari tomonidan butlik, shikastlanishlar mavjudligi, sozlik va texnik talablarga muvofiqligi (uskunaning transport yuk xati, qadoqlash varag‘i, invoys, markirovka va Kontrakt spetsifikatsiyasiga mosligi) yuzasidan tekshiruv o‘tkaziladi.
- ⌚ Tekshiruvlar muvaffaqiyatli o‘tkazilgandan so‘ng tomonlar tomonidan Tovarni topshirish-qabul qilish dalolatnomasi imzolanadi.
- ⌚ Buyurtmachi tomonidan bojxona rasmiylashtiruvi amalga oshirilib, Tovar o‘z omboriga qabul qilingandan so‘ng, Tovar miqdori, sifati, ishlash qobiliyati, shuningdek yetkazib berilgan Tovarning bankda ekspluatatsiya qilinayotgan va O‘zbekiston Respublikasida qo‘llanilayotgan to‘lov tizimi bilan mosligi bo‘yicha tekshiriladi va qabul qilinadi. Tovarning mosligini tekshirish Buyurtmachi tomonidan Tovarni o‘rnatish va sozlash, hamda O‘zbekiston Respublikasi to‘lov protsessing markazlaridan moslik to‘g‘risidagi tasdiqlovchi hujjatni olish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Faqat to‘liq tekshiruv amalga oshirilgandan keyingina tomonlar tomonidan Tovarni qabul qilish-topshirish dalolatnomasi imzolanadi.

14. Kafolat va kafolatdan keyingi xizmat ko‘rsatish bo‘yicha talablar (muddat, joy).

Bankomatlarni ishlatishdan oldin va ekspluatatsiya jarayonidagi kafolat shartlari:

- ⌚ Ishlab chiqaruvchidan bankomatlarga beriladigan kafolat Uskunani Buyurtmachiga topshirish-qabul qilish dalolatnomasi imzolangan kundan boshlab kamida **1 (bir) yilni** tashkil etishi kerak va bu taklifda ko‘rsatiladi. Bankomatlar faqat Buyurtmachi va mustaqil tomon tomonidan Yetkazib beruvchi vakili ishtirokida o‘tkazilgan texnik ekspertiza natijalari olingandan keyingina nuqsonli deb tan olinadi. Agar nuqsonlar Yetkazib beruvchi tomonidan tan olinsa, Yetkazib beruvchi barcha nuqsonli bankomat birliklarini nuqsonli bankomatlarni topshirish-qabul qilish dalolatnomasi rasmiylashtirilgan sanadan boshlab **30 (o‘ttiz) kalendar kun** ichida sozlariga almashtirib beradi.
- ⌚ Agar biror-bir uskuna uchun ishlab chiqaruvchi tomonidan belgilangan standart kafolat muddatlari so‘ralayotgan kafolat muddatidan oshsa, u holda ushbu uskunaning kafolat muddati ishlab chiqaruvchi tomonidan belgilangan kafolat muddatidan kam bo‘lmagan muddatda belgilanadi.
- ⌚ Barcha uskuna tegishli tartibda rasmiylashtirilgan kafolat talonlari bilan ta‘minlanishi kerak. Yetkazib beruvchi butun kafolat muddati davomida yetkazib berilgan uskunani ishlashga

yaroqli holatda saqlash masalalari bo'yicha maslahat berishni ta'minlashi kerak. O'zbekistonda kafolatli servis markazining mavjudligi shart.

Bankomatlar bo'yicha e'tiroz bildirish shartlari:

- ⌚ Nuqsonli mahsulot yetkazib berilgan taqdirda, Buyurtmachi bankomatlar yuklab jo'natilgan sanadan boshlab **30 (o'ttiz) kalendar kun** ichida Yetkazib beruvchiga yozma reklamatsiyalar taqdim etish huquqiga ega. Reklamatsiyalar Yetkazib beruvchiga chopar orqali (qo'lda), pochta, telegraf yoki faks orqali yuborilishi mumkin. Reklamatsiyada quyidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi:
 - mahsulot nomi;
 - nuqsonli birliklar soni;
 - nuqson xususiyatining batafsil tavsifi.
- ⌚ Yetkazib beruvchi Buyurtmachining reklamatsiyalarini ko'rib chiqishi va reklamatsiya olingan sanadan boshlab **10 (o'n) kalendar kun** ichida ularni qabul qilishi yoki rad etishi to'g'risida yozma ravishda xabar berishi kerak.
- ⌚ Reklamatsiya standartlarga nomuvofiqlik yoki bankomatlarning to'g'ridan-to'g'ri maqsadi bo'yicha foydalanish uchun yaroqsizligi hollarida qo'yilishi mumkin. Reklamatsiya tan olingan taqdirda, Yetkazib beruvchi nuqsonli mahsulotni nuqsonli bankomatlarni topshirish-qabul qilish dalolatnomasi rasmiylashtirilgan sanadan boshlab **60 (oltmish) kalendar kun** ichida almashtirib berish majburiyatini oladi.

15. Servis markaziga qo'yiladigan talablar

Yetkazib beruvchi butun O'zbekiston Respublikasi hududida, jumladan Toshkent shahrida bankomatlarga servis xizmati ko'rsatishni ta'minlashi kerak.

Servis xizmati quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- ⌚ O'zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqaruvchi tomonidan avtorizatsiyalangan servis markazining mavjudligi yoki uskuna foydalanishga topshirilgunga qadar uni tashkil etish majburiyati;
- ⌚ O'zbekiston Respublikasining barcha viloyatlarida, shu jumladan Toshkent shahrida servis qamrovini ta'minlash;
- ⌚ Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish uchun O'zbekiston Respublikasi hududida kamida 20 birlik miqdorida yetarli sondagi servis bo'linmalari (filiallar/hamkorlar) mavjudligi;
- ⌚ Har bir servis bo'linmasining kamida 3 nafar malakali mutaxassis bilan butlanganligi;
- ⌚ Servis qo'llab-quvvatlash xizmati ishlab chiqaruvchining yoki u tomonidan avtorizatsiya qilingan servis markazining malakali mutaxassislari tomonidan amalga oshirilishi kerak.

Qo'shimcha talablar:

- ⌚ Uskuna va dasturiy ta'minotning ishlash qobiliyatini tiklash bo'yicha zarur ishlarni bajarish.
- ⌚ Kafolat muddati davomida ishdan chiqqan qismlarni (detallarni) bepul almashtirish va/yoki ta'mirlash.
- ⌚ Servis yordami ish kunlarining ish soatlarida ko'rsatilishi, ishlab chiqaruvchining yoki ishlab chiqaruvchi tomonidan avtorizatsiya qilingan servis markazining Texnik qo'llab-quvvatlash xizmatiga murojaat qilish imkoniyati bo'lishi kerak.

Yetkazib beruvchi ariza tarkibida yoki yetkazib berish boshlangunga qadar quyidagilarni taqdim etishi shart:

- ⌚ Servis bo‘linmalari to‘g‘risida ma’lumotlar (manzillar, bog‘lanish ma’lumotlari);
- ⌚ Xodimlar soni va malakasi to‘g‘risida ma’lumot;
- ⌚ Ishlab chiqaruvchi avtorizatsiyasini yoki avtorizatsiyalangan servis hamkorlari bilan shartnoma munosabatlarini tasdiqlovchi hujjatlar.

Agar yetkazib beruvchi norezident bo‘lsa va O‘zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqaruvchi tomonidan avtorizatsiya qilingan servis markaziga ega bo‘lmasa, u uskuna yetkazib berilgunga qadar O‘zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqaruvchining avtorizatsiyalangan servis markazini tashkil etishi va rasmiy ro‘yxatdan o‘tkazishi shart.

16. Tovarining qoldiq yaroqlilik muddati, saqlash muddati va sifat kafolatiga oid talablar.

- ⌚ Sifat kafolati taqdim etilishi zarur. Yetkazib beruvchi tovar sifatining zarur talablarga muvofiqligini ta’minlash va tovarda aniqlangan nuqsonlar uchun Buyurtmachi oldida javobgar bo‘lish majburiyatini o‘z zimmasiga oladi.
- ⌚ Yetkazib beruvchi uskunani (barcha butlovchi qismlarni) qo‘llab-quvvatlash muddati — **EOS (end of support/service)** tugash sanasi yetkazib berish shartnomasi tuzilgan paytdan boshlab 5 yildan erta bo‘lmasligini kafolatlaydi.
- ⌚ Uskunani qo‘llab-quvvatlash barcha bloklar va komponentlarga servis xizmati ko‘rsatish imkoniyati mavjudligini anglatadi.
- ⌚ Yetkazib beruvchi alohida platalar va modullarga buyurtmalar qabul qilish, ishlab chiqarish va yetkazib berish muddati — **EOM (end of market for expansion)** tugash sanasi yetkazib berish shartnomasi tuzilgan paytdan boshlab 5 yildan erta bo‘lmasligini kafolatlaydi.

17. Tovarining ishlab chiqarilgan yili/chiqarilishiga oid talablar.

Bankomatlar 2025-yildan erta ishlab chiqarilmagan bo‘lishi kerak.

kelishuvchilar: J.Alimov

<https://hujjat.brb.uz/?pin=rM65iO57&id=5e941cba-6015-4c64-b1e6-267d24883e8c>